

UMAR XAYYOM IJODIDA EKZISTENSIAL BORLIQ KATIGORYASI – INSON VA DUNYO MUNOSABATIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-96-100>

Rustamova Parizoda Bahrom qizi

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Izzetova E.M.

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir U. Xayyomning ruboiylari va falsafiy asarlarida aks etgan “ekzistensial borliq” va uning muammolari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, borliq va inson o‘rtasidagi ekzistensial aloqa Umar Xayyom qarashlari orqali tahlil qilinadi. Xayyomning ilk ekzistensial fikr asoschilaridan biri sifatida bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ekzistensializm, ekzistensial borliq, koinot, inson, ruh, poeziya, mavhumlik, erkinlik, ishonchsizlik.

Mavjudlik falsafasi inson tafakkurida qadim zamonlardan buyon turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Inson bu dunyoga qanday keladi; Uning hayoti va o‘limiga sabab nima; Odamzotning bu dunyodagi vazifasi qanday; kabi savollarga har birimiz javob topishga harakat qilganmiz. Bunday fikrlar sharqda ham ko‘plab mutafakkirlarning ijodida o‘rin egallaydi. Xususan, fors olimi va shoiri Umar Xayyom o‘zining asarlarida ekzistensial dunyoqarashni ifodalagan faylasuflardan biri hisoblanadi. XIX-asr o‘rtalaridan boshlab, ingliz shoiri Fitsjerald tomonidan Umar Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjima qilinishi, Yevro‘pada uning qarashlarini o‘rganish uchun keng yo‘l ochib berdi.

Keyinchalik, XX-asrda paydo bo‘lgan ekzistensializm oqimi Xayyom ijodini yanada yaxshiroq tushunish imkonini berdi. Ekzistensializm bu – insonning mavjudlik mohiyati haqidagi ta‘limot bo‘lib asosan g‘arbda, XX-asr o‘rtalaridagi ruhiy tushkunlikni o‘zida ifodalagan. Ekzistensial borliq esa – bu insonning o‘ziga xos, betakror va shaxsiy yashash tarzi hisoblanib, falsafada u “shunchaki mavjud bo‘lishdan” farqlanadi. Xayyom zamonaviy ma‘noda “ekzistensialist” bo‘lmagan bo‘lsada, uning ontologik asarlari va asosan “to‘rtliklari”da ekzistensial borliq asosiy o‘rin tutadi. Qayd etish lozimki, bu uning murakkab hayot yo‘li bilan ham bog‘liqdir. U o‘z ruboiylarida hayotning o‘tkinchiligini anglaydigan, borliq ma‘nosiga shubha bilan qarovchi va ayni lahzada tayanch topishga intiluvchi inson sifatida gavdalanadi. Abu‘l-fath Umar ibn Ibrohim Xayyom milodiy 1048-yilda (hijriy 439-yil) Nishopurda – o‘sha davrning eng yaxshi ilmiy markazlaridan birida tavallud topadi. Garchi bir davrda yashamagan bo‘lsalarda ulug‘ mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoni o‘zining ustozlari sifatida ko‘rdi va hayotlik davrida uning falsafiy asarlariga sharhlar yozdi. Jumaladan, Ibn Sinoning umumiy falsafaga bag‘ishlangan kitobi “ash-Shifo” asarining “metafizika” bo‘limiga sharhlar yozadi va uni “Sharh ma ashkala min musadarat Kitab ash-shifa” deb nomlaydi. Shunday falsafiy asarlari bois, u g‘arbda Ibn Sinodan keyingi

va Suhravardiydan oldingi eng muhim faylasuf nomiga sazovor bo‘ldi [1,474]. Uning ruboiylarida mavjudlik, iroda, ma’suliyat, kabi falsafiy tushunchalar keng o‘rin egallagan. Umar Xayyom umrining oxirgi yillari haqidagi ma’lumotlar bizga tarixchi Bayhaqiyning asarlari orqali yetib kelgan [2,443].

Garchi, Xayyom hayoti davomida o‘zini faylasuf sifatida ko‘rmagan bo‘lsada uning ijodida borliqqa oid qarashlar alohida o‘ringa ega. Uning borliq va uning xususiyatlariga doir yozgan asarlari bunga yaqqol isbot bo‘loladi. Xususan, borliq va uning falsafasiga bag‘ishlab: “Risola fil vujud”(borliq haqida risola), “Risola fi kulliyoti vujud”(Borliqning umumiyliigi haqida risola) va “Risolat ul-kavn vat-taklif”(Koinot va uning vazifalari haqida risola) kabi to‘plamlarida olim: mavjudlik, xudo, sabab va oqibat kabi katigoryalarga katta ahamiyat qaratgan [3,85].

Umar Xayyom ham boshqa sharq faylasuflari kabi borliqni ikkiga: Vojib ul-vujud (zaruriy borliq) va mumkin ul-vujud (zarur bo‘lmagan borliq) ga ajratadi. Uning fikricha Hudo bu – zaruriy borliq asosi hisoblanib u butun olamning yaratuvchisidir. Qolgan barcha narsalar esa uning yaratig‘i sifatida zarur bo‘lmagan borliqni tashkil qiladi. Xayyom borliqdagi barcha narsalar qarama-qarshilik xususyatiga ega deb hisoblaydi. Unga ko‘ra: “Agar qarama-qarshilik zarurati shartli ravishta mavjud bo‘lsa, uning sababi bo‘lishi shart va bu sabab-oqibat zanjiri zaruriy borliq bilan tugaydi.” Xayyom bu fikrni quydagicha isbotlashga harakat qiladi: “Agar qarama-qarshilik zarurati o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lsa unda boshqa zaruriy borliqlar ham bo‘lishi kerak edi lekin bu g‘oya haqiqatdan yiroq. Shu boisdan zaruriy borliq o‘z-o‘zining ixtirochisi sifatida namoyon bo‘ladi va sabab-oqibat zanjiri u bilan yakun topadi” [4,104]. Xayyom borliqning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosi sifatida Hudoni ko‘rsada, olamning o‘zaro qama-qarshiliklar natijasida tadrijiy rivojlanish xususiyatini ham unutmaydi. Bu esa bugungi kun falsafasining ustuni bo‘lgan dialektika qonunlarining Umar Xayyom qarashlarida ham o‘rin olganligini isbotlaydi.

Albatta, bu olimning sof ontologik qarashlari hisoblanadi. Bundan tashqari, “Kulliyat-i vujud” asarida Xayyom borliqni inson va uning ruhiyati bilan bog‘lab tafsiflashga harakat qilgan. U inson ruhini koinot bilan tenglashtirib insonga katta imkoniyatlar beradi. Xayyom qarashlarida insonning ibtidosi koinotdan kelib chiqadi, zero sharq tafakkurida yaratuvchining joyi osmonda ekanligi haqidagi qarash keng tarqalgandir. U inson ruhi borliqni tushunishning birdan bir vositasi deb biladi chunki uning fikricha barcha xotira va taassurotlar aynan ruhda shakllanadi. Xayyom: “inson va koinot bir jinsdan iborat” deb hisoblaydi. U asarida shunday yozadi: “Inson aql bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi va ularga begonadir. Shuning uchun ham inson doim koinotga intilib yashaydi”[1,482]. Uning fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, Xayyom insonni bu dunyoda yolg‘iz ekanligini anglaydi va insonning mohiyatini koinot bilan bog‘laydi. Olimning yuqoridagi fikrlari nemis olimi Haydiggerning “borliq va vaqt” asarida ifodalagan ekzistensial fikrlariga monanddir. Nemis olimi asarida insonni oddiy “pridmet” emas balki “dasein” (bu yerda butun bir borliq ma’nosida) deb ataydi. Darhaqiqat, Xayyomning ilmiy va adabiy asarlarida ham biz insonni borliqning ajralmas va muhim qismi sifatida ko‘ramiz.

Umar Xayyomning “ekzistensial borliq” haqidagi tafakkuri ayniqsa uning ruboiylari orqali keng ochib beriladi. U o‘z to‘rtliklarida hayotning intihosi borligini anglash, dunyoning absurdligi, erkinlik va shaxsiy tanlov, insonning koinotdagi yolg‘izligi kabi masalalarni ifodalashga harakat qiladi. Xayyom ruboiylarining qiymati shundaki, u she‘rlarini podshohlar yoki o‘quvchilarga taqdim etiladigan ijod namunasi sifatida emas, aksincha o‘z dunyoqarashi va kechinmalarini yanada yaxshiroq tushuntirish vositasi sifatida yozib qoldirgan. Uning she‘riy ijodini o‘rganar ekanmiz ilk ekzistensial qarashlar aynan uning asarlarida shakllangan deya bemalol ayta olamiz. Masalan u ruboiylaridan birida: “Bu dunyoda g‘am yemaslikni, dunyo lazzatlaridan zavqlanish kerakligini, zero inson bu hayotdan o‘zi bilan bir don ham olib ketolmaydi” deya takidlaydi [6,24]. Uning bu so‘zlari dunyo o‘tkinchiligini tan olish va uni to‘laligicha yashashga bo‘lgan intilishning ifodasidir.

O‘zining islomiy etiqodiga qaramay Xayyom narigi dunyo ne‘matlariga ishonish va uning uchun bu hayotni qurbon qilish aqlsizlik ekanligini takidlaydi. Ayni shu nuqtada u o‘zining mavjudlik tanlovini qiladi va hamma borgan yo‘ldan emas balki o‘zi to‘g‘ri deb bilgan fikr ortidan borishni maqul deb biladi. Xayyomning zamonaviy ekzistensialist faylasuflardan farqi uning inson mavjudligini anglashda, bir yoqlama emas, balki ko‘p qirrali yondashuvidadir. U ekzistensialistik borliqning hamma jihatlarini o‘z ruboiylarida ifoda eta olgan kam sonli insonlardan hisoblanadi. Masalan, uning borliqni tushunishga urinishidagi mavhumlik uning etiqodi bilan ham bog‘liq. Islomda har doim taqdir va iroda erkinligi masalasi nisbatan murakkab ilm hisoblangan. Musulmon shaxs har doim ham o‘zining tanlovi va Allohning irodasi o‘rtasidagi farqni ajratib ola olmaydi. U o‘zining ruboiyotida “tabiatni yaratgan Alloh nima uchun uni buzib, tabiiy ofatlarni keltirib chiqarishi, agar bu insonlarning gunohlariga jazo bo‘lsa, unda bu gunohlarning sababchisi kim ekanligini savol ostiga qo‘yadi” [3,90]. Bu fikrlar g‘arbda o‘zining “absurtizm” g‘oyalari bilan mashhur bo‘lgan Albert Kamyuning “Vabo” asarida ham aks etadi. Kamyu asarida “Dunyoda shunchalar ko‘p yovuzliklar borki, agar Hudo bor bo‘lsa, u azoblarga befarq yoki “zolim”dir deb hitob qiladi. Bu dunyo mohiyatiga yetib bo‘lmasligini tushungan Xayyom uni insonning o‘zidan qidirishni boshlaydi. Bu yo‘lda ilmning odamzot uchun eng to‘g‘ri vosita ekanligini bot-bot takidlaydi. Ammo biz uning ruboiylaridan bu ish unchalik ham oson emasligiga amin bo‘lamiz, zero boshqa ko‘plab olimlar singari Xayyom ham bu yo‘lni oxirigacha bosib o‘ta olmadi:

Dilim ilmlardan mahrum bo‘lmabdi,
 Bir siz qolmadiki mafxum bo‘lmabdi.
 Tunu kun o‘yladim, yetmish ikki yil,
 Ongladim – hech narsa ma’lum bo‘lmabdi [6,22].

Xayyom yuqoridagi ruboiysida o‘z faoliyati muammosini tahlil qiladi. Bunda u (ekzistensial antropologiyadagi kabi) faoliyat natijalari inson tomonidan hukmronlik qiluvchi muayyan kuchga aylanib qolishini tushuntiradi. Shuningdek u ekzistensial anglashni chuqurlashtirib o‘zidagi qo‘rquv, armon, yolg‘izlik kabi tushunchalarni o‘z sheriyatida namoyon qiladi. Nihoyat, ularning barchasi shoirga bu dunyodan begonalashish tuyg‘usini beradi va o‘zining alohida dunyoqarashi shakllanishiga turtki

beradi. Mutafakkir o‘zining mavjudlik uslubi sifatida she‘rlarida o‘ziga xos uslublardan foydalangan. Masalan, may, jom, oshiq, ko‘za kabi obrazlar orqali biz Xayyomda inson erkinligining tasavvufiy talqiniga guvoh bo‘lamiz. “Agar islom ildizlariga nazar soladigan bo‘lsak aynan tasavvufda shaxs erkinligining o‘ziga xos turi tushuntiriladi. Bu jarayonda inson fikran moddiy tabiat chegaralaridan chiqib e‘tiqodda unga ochiladigan muqaddas an‘analardan hayotiy mo‘ljallar olib, metafizik voqelikka o‘tadi”[7,27]. Bundan kelib chiqadiki, Xayyom ijodida biz ham ekzistensial ehtiyoj bo‘lgan – erkinlik, ham diniy yo‘nalish bo‘lgan – tasavvufni birgalikda uyg‘un ravishta ko‘ra olamiz. Borliqning mavhumligidan kelib chiquvchi noaniqlik hissiga qaramay, Xayyom taslim bo‘lmaydi va insonni lahzada yashashga unaydi. U erkinlikning mavjud ekanligiga ishonadi va buni nafaqat dunyoviy bakli diniy yondashuv bilan ham isbotlashga harakat qiladi:

Jannatda ham huru ham may bo‘larnish,
Hammasi mo‘l-ko‘lu no‘may bo‘larmish.
Biz mayu mashuqni sevsak arziydi,
Chunki oqibat ham shunday bo‘larmish. [6,19]

Xayyomning bu ruboiysi bizga “Ekzistensializm”ga oqim sifatida asos solgan Jan-Pol Sartrning “inson erkinlikka mahkum” degan iborasini eslatadi. Har qanday holatda ham inson o‘zining tanlov imkoniyatidan qocha olmaydi. Bundan tashqari, bu to‘rtlik bizga “ekzistensial borliq”ning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan “inson ma‘noni o‘zi yaratadi” degan qarashni ham isbotlaydi.

Xayyom yashagan davr ichki ziddiyatlar va sulolalar o‘rtasidagi urushlarga to‘la edi. Qisqa davr mobaynida ko‘p bora hokimiyat almashgan bo‘lsada ularning hech biri oddiy xalq hayotining yaxshilanishiga olib kelmadi. Aksincha, bir tarafdin taxt uchun kurashlar, ikkinchi tarafdin diniy aqidalar o‘rtasidagi mojarolar olimdagi ekzistensial ishonchsizlik, dogma va hokimiyatga shubha bilan qarash kabi g‘oyalarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Umuman olganda, biz Xayyom ruboiylarida mavhumlik, isyonkorlik, erkinlik va qo‘rquv kabi insonga xos bo‘lgan tushunchalarni o‘zaro uyg‘unlikda ko‘ramiz. Uning ruboiylarining asosiy xususiyati – ratsional va hissiy, falsafiy va she‘riy bitiklarning uzviyligidadir [8,117]. Darhaqiqat, zamonaviy davr ekzistensial faylasuflaridan farqli ravishta Xayyom ham she‘riyatni ham falsafani bir-birga bog‘lay oldi.

XULOSA

Umar Xayyom falsafasida ekzistensial borliqni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, U o‘z hayoti davomida agramomiya, fizika va matematika kabi fanlarni bu dunyoni bilish vositasi sifatida o‘rgangan. Uning borliq haqidagi qarashlari uning har tomonlama fikrlay oluvchi qomusiy olim ekanligini ko‘rsatadi. Shuni takidlash joizki, Xayyom ham nasriy ham nazmiy asarlarida insonni borliq bilan birgalikda o‘rganishga harakat qildi. Bu esa unga insonning ekzistensial borlig‘ini ochish imkonini berdi. Xususan, uning she‘riyati faylasuflar uchun ekzistensial poeziya, shoirlar uchun esa ekzistensial falsafa namumasi bo‘lib qoldi. Qisqa qilib aytganda, Xayyomga murojaat qiluvchi har bir inson o‘ziga kerakli xulosani olar edi. Zero unda o‘tmishning chuqurligi va kelajakning buyukligi shunday qamrab olinganki, “ayni lahza”ga hech

qachon e'tiborsiz qaray olmasan. Shuning uchun ham asarlar o'tgan bo'lsada, uning shariyatida hozirgi davr bilan o'zaro bog'liqlik hali ham saqlanib qolgan: dunyoda hech narsa o'zgarmadi – o'sha yulduzlar, o'sha koinot Galaktikaning o'sha ma'nosiz aylanishi, xiyonat, noloyiqlik kutilmagan boylik va kambag'allik, bularning barchasi hali ham borliq va unda yashovchi insonlarga xos xususiyatlardir. Bu esa Xayyom qarashlarining har bir zamonda muhim ekanligiga isbot bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Nasr, Aminrazavi M. An Anthology of philosophy in persia. Vol 1:From Zoroastr to 'Umar Khayyam//I.B.Tauris & Co Ltd 6salem Rd,2008. – 506p.
2. Ross E.D., Gibb A.R. The earliest Account of Omar Khayyam//B.S.O.S,1928. – 467p.
3. Shomammedov Sh. For-tojik klassiklari//Гослитиздат УзССР. – Ташкент. – 1969. – 196b.
4. Swami Govinda Tirtha. The Nectar of Grace: Omar Khayyam's Life and Works. – Allahabad. – 1941. – Pp. 104-128.
5. Andrew J. Omar Khayyam: Astronomer, Mathematician and Poet //Manchester, Persian studies university. – Pp. 30-45.
6. Shomammedov Sh. Umar Xayyom:Ruboiyot. - Toshkent, 1981. – 128b.
7. Мақаев Р.С. , Кожевников С.Б. Трактровка свободы в экзистенциализме и суфийском исламе//Вестник МГПУ, № 20. Серия «Философские Науки». – Москва, 2022. -С. 20-29.
8. Исмуков Н.А..Экзистенциальная Поэзия О. Хайяма: Опровержение Времени// Человек и общество, 2011. – Сс.115-120.